

2024-yil 17-aprel

Yosh ishchi-xodimlar uchun ingliz tili bo'yicha o'quv kurslari boshlandi



“Qo'ng'iroq soda zavodi” MCHJ QK yosh ishchi-xodimlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida xayrli tashabbuslarni ilgari surmoqda.



Ishchi-xodimlarni xorijiy tillarni o'rganishga rag'batlantirish maqsadida korxonada rahbariyati va kasaba uyushmasi tomonidan ingliz tili darslari tashkil etildi. Hozirda korxonada xorijiy tillarni o'rganmoqchi bo'lgan yoshlar va tajribali o'qituvchilar ta'lim berishi uchun kerakli shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Mashg'ulotlarning dastlabki kunlarida 20 dan ortiq yoshlar ishtirok etdi va xohlovchilar soni ortib bormoqda.

Yaqin kunlarda rus tili bo'yicha ham mashg'ulotlar tashkil etish rejalashtirilgan.



“Qo'ng'iro't soda zavodi” MCHJ QK Matbuot xizmati

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/yosh-ishchi-xodimlar-uchun-ingliz-tili-bo-yicha-o-quv-kur-sla>